



Pedagogical and psychological characteristics of the methodology for improving the quality of teaching in the process of professional development by means of blended learning technologies

Umida GIYASOVA¹, Lobarkhon JABBAROVA², Muniskhon RAJABOVA³

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024
Received in revised form
15 October 2024
Accepted 25 October 2024
Available online
25 December 2024

Keywords:

blended learning,
organizational and
pedagogical conditions,
advanced training processes,
andragogical education,
distance learning,
professional training,
motivation,
information and
communication and
pedagogical technologies.

ABSTRACT

The article addresses the organizational and pedagogical conditions for improving the quality of teaching in the professional development of pedagogical staff at higher educational institutions through a methodology based on blended learning. Additionally, it highlights the advantages of pedagogical education, blended and distance learning, and explores the structure of professional development organizations rooted in blended learning.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss11/S-pp124-130>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Blended learning texnologiyalari vositasida malaka oshirish jarayonida o'qitish sifatini oshirish metodikasining pedagogik-psixologik xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

aralash ta'lim,
tashkiliy pedagogik shart-
sharoitlari,

Mazkur maqola oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarni malakasini oshirish jarayonida Blended learning texnologiyalari vositasida o'qitish sifatini oshirish metodikasining tashkiliy

¹ Lecturer, Department of Foreign Languages Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

² Lecturer, Department of Foreign Languages Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

³ Lecturer, Department of Foreign Languages Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

malaka oshirish jarayonlari,
andragogik ta'lim,
masofaviy ta'lim,
kasbiy tayyorgarlik,
motivatsiya,
axborot-kommunikatsion va
pedagogik texnologiyalar.

pedagogik shart-sharoitlari masalasiga bag'ishlangan. Shu jumladan, andragogik, aralash hamda masofaviy ta'lim afzalliklari, blended learning asosida malaka oshirish ta'lim jarayonini tashkil etish tuzilmasi yoritilgan.

Педагогико-психологические характеристики методики повышения качества обучения в процессе повышения квалификации с использованием смешанных технологий обучения

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

смешанное обучение,
организационно-
педагогические условия,
процессы повышения
квалификации,
андрагогическое
образование,
дистанционное обучение,
профессиональная
подготовка,
мотивация,
информационно-
коммуникационные и
педагогические
технологии.

Статья посвящена исследованию организационно-педагогических условий, способствующих повышению качества обучения в процессе повышения квалификации педагогических кадров высших учебных заведений с использованием смешанного обучения. Рассматриваются преимущества андрагогического, смешанного и дистанционного образования, а также структура организации повышения квалификации на основе методов смешанного обучения.

KIRISH

Bugungi transformatsion jarayonlarda ta'limga bo'lgan an'anaviy qarashlarni zamon talabidan kelib chiqqan holda, yangi nazar bilan ko'rib chiqishni va yangicha yondashuv ko'nikmalarini egallash masalalarini talab qilmoqda. Bu esa izchillik bilan o'z o'rnida, innovatsiyalarni faol tatbiq qilish, ilm-fan va ishlab chiqarishni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni taqozo etmoqda. Ta'lim – bu kelajagimiz, shu bois, ta'lim tizimiga yondashuvni qaytadan ko'rib chiqib, an'anaviy o'qitish modeliga yangi o'qitish standartlarini kiritish zarurdir. Davr talablaridan kelib chiqqan holda, texnologiyalar o'qitish jarayonining bosh katalizatoriga aylanishi kerak. Ta'lim tizimini to'liq isloh qilish murakkab jarayon bo'lib, tashqi olam bilan uzluksiz tarzda o'zaro munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Shunday qilib, mavjud to'siqlarni bartaraf qilish hamda o'qitish jarayonini maksimal samarali rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratishda ta'lim jarayonining bosh bo'g'inlarini aniqlab olish, har birining kuchli va zaif tomonlarini belgilash zarurdir.

Bizning fikrimizcha, keyingi o'n yillik mobaynida ta'lim sohasini modernizatsiya qilish jarayonida ta'limga yangicha yondashuvning muhim va samarali ekani ta'kidlanmoqda. Biroq qaysi sohada bo'lmasin, mazkur holatda ta'lim jarayoniga o'zgartirishlar kiritishda, mahalliy mentalitet va madaniyatning o'ziga xosligini doimo hisobga olish muhimdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, Blended learning Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa va Rossiyada mashhurligi nafaqat an'anaviy ta'lim va masofaviy o'qitish texnologiyalari tomonidan taqdim etilayotgan afzalliklarning maqbul kombinatsiyasi orqali o'quv jarayoni samaradorligini oshirish imkoniyati, balki iqtisodiy sabablarga ham bog'liq, yuklangan vazifalarni hal qilish uchun ma'lumotni yetkazib berishning "tejamkor" usullarini tanlash bilan bog'liq xarajatlar, masalan, o'quv materiallarini tarmoqqa joylashtirish, ta'lim mazmunini boshqarish tizimlaridan foydalanish kabi qulayliklardir.

Ma'lumki, Blended learning tushunchasi masofaviy va an'anaviy ta'lim uyg'unligiga asoslangan o'qitish modeli sifatida tushuniladi [6].

Aralash ta'limga Clayton Christensen Institute tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: "blended learning – zamonaviy ta'lim texnologiyasi bo'lib, o'qituvchi ishtirokidagi ta'lim olishni (Brick and Mortar Education) onlayn ta'lim (e-Learning) olish bilan birlashtiradi hamda ta'lim oluvchi tomonidan o'quv jarayonining tezligi, manzili, vaqtini mustaqil nazorat qilinishini hamda o'qituvchi bilan birga va onlayn o'qish tajribasi integrasiyasini faraz qiladi" [2].

Blended learning an'anaviy va masofaviy ta'lim texnologiyalarini birlashtiradi. Ushbu ta'lim texnologiyasi an'anaviy (Brick and Mortar Education) ta'limdan voz kechishni talab qilmaydi, chunki an'anaviy ta'lim (auditoriyada o'qish) shaxs uchun muhim bo'lgan nutq va ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ingliz tilida Brick and Mortar (g'isht va eritma) deb atalishi an'anaviy, "uzoq vaqt ichida qo'llaniladigan" ma'nosini bildiradi. Brick and Mortar Education to'liq ta'limning an'anaviy modelini bildiradi. Bunda ta'lim oluvchi auditoriyalarda o'tkaziladigan darslarda qatnashadi, ammo shu bilan birga Computer-Mediated Activities vositalaridan ham foydalanadi. Ya'ni, ta'lim faolligi mediator vazifasini kompyuter, onlayn-rejim, mobil qurilmalar hamda maxsus o'rgatuvchi dasturlar /platformalar/ resurslar bajaradi.

Blended learning texnologiyasi turli xil auditoriyalarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Jumladan, ta'lim oluvchilarni o'qitish, treninglar, malakasini oshirishda ishlatish.

"Blended learning texnologiyasi" termini birinchi bor 1999-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarining Interactive Learning Center press-relizida keltirilgan va ular tomonidan "EPIC Learning" deb yuritilishi taklif etilgan. Mediamateriallarda: "...Biz o'zimizning Blended Learning nomli metodologiyani qo'llab, internet orqali ta'lim olish uchun dasturiy ta'minotni taqdim etamiz deyilgan" [5].

Oliver va Trigvell (2005) [7] qayd etishicha, Blended learning muammosiga bo'lgan qiziqishni kuchayishi o'quv jarayonida axborot texnologiyalarni faol qo'llanilishi bilan tushuntirilsa, Bonk va Graham (2006) [4] Blended learning "yuzma-yuz" (face-to-face instruction) va kompyuter yordamidagi (computer-mediated instruction) ta'limning birlashishi deb ta'rif beradilar.

Bugungi kunda Blended learning deganda Internet va auditoriyadagi raqamli media ta'lim imkoniyatlarining birlashishini nazarda tutadi.

Tahlillarga ko'ra, AQShning Innosight Institute (www.innosightinstitute.org) tashkiloti 2007-yildan boshlab Amerika maktablarida Blended learning texnologiyalarni amalga oshirish tajribalarini o'rganib kelmoqda. Ushbu tashkilotning har yilgi hisobotlarida maktab o'quvchilarining natijalari keltirilmoqda va ular har doim an'anaviy


ta'limda o'qitilayotgan o'quvchilarning natijalaridan ancha yuqori ekanligi qayd etilmoqda. Bizning nazarimizda bu holatni, Blended learning turli ish shakllari (auditoriyadagi ma'ruzalar, masofaviy mustaqil ishlar, onlayn maslahatlar, tyutorlik xizmatlari va boshq.) integratsiyasiga asoslanganligi bilan bog'lash mumkin.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim ma'lum darajada Blended learning turi deb atasak mubolag'a bo'lmaydi, chunki raqamli texnologiyalar bilim va tajribaning asosiy manbaidir. Ammo shunga qaramasdan, Garvard universitetida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida aniqlanishi bo'yicha Blended learning texnologiyalarda ta'lim oluvchilar uchun asosiysi kursning onlayn elementlari emas, balki ta'lim beruvchi tomonidan material qay ko'rinishida berilishi ajratib ko'rsatilgan, shu sababli ushbu ta'lim texnologiyasida ham inson omili katta ahamiyatga ega.

MAZMUNI


Blended learning asosiy g'oyasi o'qish jarayonini bir qismi onlayn ko'rinishda o'tishi emas, balki ta'lim oluvchida o'qishning vaqti, joyi va tempini mustaqil nazorat qilish imkonining paydo bo'lishi bilan asoslash mumkin. Mazmun shundaki, ta'lim oluvchi qayerda, qanday, qachon va qanday tezlik bilan o'qishni o'zi hal qiladi. Manzil va makon Blended learning tushunchasiga kiritilgan. Ta'lim jarayoni to'liq axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshirilsada, ammo aynan shu komponent (ta'lim oluvchi vaqtni, joyini, tempni va yo'lni tanlashi) olib tashlansa, natijada biz texnologiyalarni chiroyli qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin, ammo ta'lim tizimidan chiqishda o'zi tanlash qobiliyatiga, qaror qabul qilishga tayyor bo'lmagan inson shakllanganligining guvohi bo'lamiz.

Blended learning texnologiyalarning afzalliklari bir qator olimlar tomonidan yoritilgan. Ularni **umumlashtirgan** holda quyidagilarni keltirish mumkin:



2.1.1-rasm. Blended learning texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari

Olimlar tomonidan Blended learning an'anaviy va onlayn elementlarning o'zaro nisbati bo'yicha 6 ta modelga bo'linadi.



2-rasm. Blended learning modellarining an'anaviy va onlayn elementlarining o'zaro nisbati bo'yicha tasniflanishi

Ularni pedagogik tahlilini batafsil ko'rib chiqamiz.

1. Face-to-Face Driver ("Yuzma-yuz boshqarish"). Ta'lim beruvchi **shaxsan ta'lim rejasining asosiy hajmini taqdim etadi, onlayn ta'lim olish esa yordamchi vosita sifatida zarurat bo'lganda qo'shiladi. Ushbu model ko'pincha o'z ichiga kompyuterdagi laboratoriya ishlarni oladi.**

2. Online Driver Model ("Onlayn boshqarish modeli"). Ushbu model asosan onlayn ta'limni nazarda tutadi. Ta'lim beruvchi bilan esa uzoqlashtirilgan aloqa olib boriladi. Ammo talab bo'yicha tekshiriluvchi mashg'ulotlar ta'lim beruvchi bilan uchrashuvlar qo'shilishi mumkin.

3. Flex Model ("Moslashuvchan model"). **Ko'pincha onlayn platforma qo'llaniladi, ta'lim beruvchi zarurat bo'lganda o'quvchilarni qo'llaydi, vaqti-vaqti bilan katta bo'lmagan guruhlar yoki alohida ta'lim beruvchilar bilan ishlaydi.**

4. Online Lab ("Onlayn laboratoriya"). Auditoriyada darslarda butun kursni uzatish uchun onlayn platforma qo'llaniladi. Ushbu ta'lim jarayoni dars olib boruvchi nazoratida sodir bo'ladi. Bunday dastur an'anaviy dastur bilan darslar jalvali ichida birlashishi mumkin.

5. Self-Blend Model ("O'zing aralashtir modeli"). Ta'lim oluvchi qaysi Brick and Mortar kurslarini onlayn mashg'ulotlar bilan to'ldirishni o'zi hal qiladi.

6. Rotation Model ("Rotatsion model"). **Auditoriyadagi an'anaviy to'liq ta'limning va shaxsiy rejimda mustaqil onlayn ta'limning dars jadvali rotatsiya qilinadi. Masalan, ta'lim beruvchi tomonidan tayyorlangan linklar rejasi bo'yicha internet orqali, maxsus saytda, muassasaning blended dasturida.**

"Rotatsion modelning bir nechta turlari mavjuddir. Ulardan biri teskari auditoriya ("Flipped classroom", "flipped learning") o'quv jarayonining tubdan "teskari o'rganish" va an'anaviy ta'lim shaklidan voz kechishi bilan ajralib turadi. A.Ibraymov **o'z tadqiqotlarida "Flipped Class" inglizcha, ruscha – "Перевернутый класс", o'zbek tilida "Teskari dars, sinf", "O'rin almashtirilgan dars, sinf", "Oldindan tayyorlanish darsi, sinfi" ma'nosiga mos kelishini aytib o'tgan [6].** Ba'zi MDH olimlari tadqiqot ishlarida mazkur o'qitish turini "reversiv o'qitish" atama bilan nomlagan. Ular "teskari o'rganish" atamasini eng to'g'ri deb hisoblaydi, chunki bu ibora asosiy g'oyani – o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini qayta tashkil etish g'oyasini aks ettiradi, shuning uchun o'rganish yo'nalishini o'zgartiradi, teskari qiladi (lotincha "reverso" – aylantirish, inglizcha "reverse" – teskari, fransuzcha "renverser" – ag'darish, ruscha – перевернутый) [6].

2007-yilda “reversiv o’qitish” (flipped learning) tushunchasi kimyo bo’yicha amerikalik o’qituvchilar Jonatan Bergman va Aaron Sams tomonidan ilmiy jamoatchilikka kiritilgan. Ularning dastlabki vazifasi o’quv vaqtini o’qituvchi tomonidan nazariy materialni tushuntirish o’rniga amaliy mashg’ulotlar foydasiga ozod qilish edi. J. Bergman va A. Sams g’oyasiga asoslanib, nazariy material masofadan turib va mustaqil ravishda o’rganilishi, uy vazifasi sinfda bajarilishi kerak (“Uyda ma’ruzalar va darsda uy vazifasi”) edi [8], [9].

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, “Flipped Class” pedagogik texnologiyasi zamonaviy kompyuter texnologiyalari, masofaviy o’qitish, Internet tarmog’i imkoniyatlari kengayishi bilan yanada rivojlangan va o’z navbatida, bu texnologiyani amalda qo’llash jahondagi o’qituvchilar va o’quvchilar uchun ma’qul bo’lib, o’qituvchilar o’zining audio, video ma’ruzalarini lokal va global tarmoqlarga joylashtira boshlaganlar” [10].

Yuqoridagi modellar tahliliga tayangan holda aytishimiz mumkinki, an’anaviy va masofaviy ta’lim texnologiyalarining afzalliklarini optimal ravishda birlashtirish va ulardan foydalanish qobiliyatini o’z ichiga olgan Blended learning konsepsiyasi malaka oshirish tizimida ta’lim jarayoni, ya’ni ingliz til o’qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, zamonaviy axborot-kommunikativ texnologiyalarining rivojlanishi sifat jihatidan yangi bosqichda ilmiy-ma’rifiy dasturlarni yaratish va amalga oshirishga imkon beradi hamda axborotlashgan jamiyatga moslashgan shaxsni shakllantirishga hissa qo’shadi. Shu bilan birga, ta’lim jarayoniga, xususan, kattalar ta’limi, malaka oshirish jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi haqida gapirganda, uning psixologik va pedagogik xususiyatlari va yondashuvlarini hisobga olish kerak bo’ladi.

Tadqiqot muammosi doirasidan kelib chiqqanda, Blended learning modeliga asoslangan chet til o’qitish jarayoni samaradorligini baholashda quyidagi jihatlariga e’tibor qaratish lozim:

- o’quv moduli tuzilmasida kunduzgi va masofadan o’qitish tarkibiy qismlarining kombinatsiyasi qanday uslubiy asosga ega ekanligi;
- AKT vositalari samarali tanlanganligi va ishlatilganligi;
- tarmoqqa joylashtirilgan o’quv materiallari bilan ishlash qulayligi;
- malaka oshirish kurslariga ajratilgan vaqtning samarali foydalanilganligi yoki sarflanganligi;
- ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilar o’rtasida onlayn muloqotga bo’lgan ehtiyojning qondirilganligi yoki aksincha ekanligi o’quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi muhim ko’rsatkichlar sifatida baholanadi.

NATIJALAR

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi ta’riflarni e’tiborga olgan holda, Blended learning texnologiyalarning chet til bo’yicha ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishdagi quyidagi jihatlarini ajratib ko’rsatish mumkin bo’ladi:

- o’quv modelining moslashuvchanligi;
- tanqidiy fikrlash va mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish;
- tinglovchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari o’rtasida doimiy aloqalarni ta’minlash;
- o’quv materialini AKT orqali oldindan mustaqil o’rganish asosida, auditoriyada vaqtdan unumli foydalanish;

- assimilyatsiya qilingan material hajmini oshirish;
- turli xil pedagogik ta'sir o'tkazish usullari;
- tinglovchilarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillarini aks ettiradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- tanlangan o'qitish modelining interaktivligi;
- tinglovchilarning axborot kompetensiyasini oshirish;
- ta'lim beruvchilar va tinglovchilar uchun deyarli cheksiz ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatlari.

XULOSALAR

Xulosa qiladigan bo'lsak, Blended learning texnologiyalaridan foydalanish malaka oshirish jarayonlarida til bo'yicha ta'lim sifatini oshirishning tashkiliy-pedagogik hamda metodik shart-sharoitlarini takomillashtirishga xizmat qilish bilan birga, tinglovchilardagi mustaqil ta'lim olish, o'zini kasbiy va shaxsiy rivojlantirish motivatsiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida andragogik yondashuvga asoslangan Blended learning metodologiyasining mazmuni, modeli va mexanizmlarini belgilashni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси.
<https://staff.tiiame.uz/storage/users/416/presentations/3KnUhuudnTmxNJB6b6IW8DmvuQ3LEKr5x1QYUU0a.pdf>
2. Васин Е.К. Особенности смешанного обучения на основе концепции деятельности треугольника // Инновационная наука. – 2015. – №5. – С. 167-172.
3. Bergmann J, Sams A. Flip your classroom: reach every student in every class every day // Washington, DC: International Society for Technology in Education, 2012. – 112 P.
4. Bonk C. J., & Graham C. R. The handbook of blended learning: Global perspectives, local designs. – San Francisco, CA: John Wiley & Sons, 2012. – 624 p.
5. Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action. International Commission on the Futures of Education. UNESCO, 2020. – 24 p.
6. Ibraymov A.E. Prokuratura organlari xodimlarining malakasini oshirishni masofaviy va aralash shakllar asosida takomillashtirish (raqamlashtirilgan pedagogik dizayn vositalari misolida): Ped. fan. dok. (DSc) ... diss. – Toshkent, 2022. – 151 b.
7. Marsh, D. Blended learning: Creating learning opportunities for language learners. – New York, NY: Cambridge University Press, 2012.
8. Oliver M., Trigwell K. Can blended learning be redeemed? // E-Learning. – 2005, Volume 2, №1. – Pp. 17-26.
9. Riznar I. Blended learning, 2010. [Электронный ресурс]. Систем, требования Adobe Acrobat Reader. URL: http://www.ibs.si/docs/Kombinirano_ucenje_jezikov.pdf (дата обращения 3.11. 2024).
10. Siddiqi A. Is Blended Best for the Net Generation? A review of the changing landscape of foreign language learning in higher education. A Pro Gradu Thesis in English, 2008. – 128 p. [Электронный ресурс]. Систем, требования Adobe Acrobat Reader. URL: https://jyx.jyu.fi/bitstream/handle/123456789/18847/URN_NBN_fi_jyu-200808145651.pdf?sequence=1 (дата обращения 22.11.2024).